

Date: 7<sup>th</sup> April-2026

ABDULLA ORIPOV IJODIDA VATAN MADHI

**Kamolova Rayhona Akmal qizi**

Qarshi davlar universiteti Filologiya fakulteti (o'zbek tili) 1-bosqich talabasi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Abdulla Oripov ijodida Vatan obrazi bilan bir qatorda, o'zbek xalqi va ularning yurtida yetishib chiqqan buyuk allomalar obrazi "Ozbekiston" qasidasi orqali yoritiladi. Mazkur sh'r shoir ijodining eng semahsul ijod namunalaridandir.

**Kalit so'zlar:** erk, jasorat, ezgulik, Vatan, avlod, xalq, birdamlik

Vatan har bir insonning kindik qoni to'kilgan zamin. Har bir inson uchun u onadek muqaddasdir. Bizning diyorumiz ham buyuklar yashab o'tgan zamindir. Ulardan qolgan qadriyatlarining kelajak avlodga yetkazish bizning burchimizdir. Xalqimizda hurriyatga, ezgulikka, adabiyotga oshno xalqdir. Mana shunday xalq bizga Temuriy, Navoiy, ibn Sino, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Oripov-u Erkin Vohidovlarni, To'maris, Uvaysiy, Nodira-yu Zulfiyalarni tarbiyalab berdi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi A.Oripov haqida gap borar ekan, har bir hamyurtimizning qalbida faxr va iftixor hissi jo'sh uradi. Ayniqsa, uning Vatan haqida yozgan barcha she'rlarida g'urur hissi mavj uradi. Ularning har birini eshitgan kishi junbushga kelishi, tabiiy. Shoir qalamiga mansub "O'ZBEKISTON" she'ri ham yurtimizning uzoq va yaqin tarixi haqida so'zlaydi. Uning ilk satrida Vatanga muhabbat tuyg'usi yanada kuchayadi. Ushu she'r har biri 10 satrlik, 14 banddan jami 140 satrdan iborat. Har bir bandning oxiri "O'zbekiston- Vatanim manim!" degan jumla bilan tugaydi. 1968-yillarda "SSSR – yagona Vatanimiz!" shiori xalq ongiga singdirilayotgan bir paytda shoirning "O'zbekiston- Vatanim manim!" deya baralla aytishi ulkan bir jasorat edi. Shoir she'rning birinchi bandida yurtiga bag'ishlab she'r yozganini, lekin u shunday o'lkaki, uni ta'riflashga hech qanday o'xshatish topa olmaganini aytadi va dunyodagi barcha joylarni tasvirlab bo'lganini, ammo o'z yurtining ta'rifiga kelganda qalam ham ojiz qolganini ta'kidlaydi. Adib yurtini shunday tasvirleydiki, agar jannatni topa olmasa ham armoni yo'qligini aytadi, bu esa shoir yurtini jannatlardan-da ortiq ekanligini bildiradi. Ma'lumki, diyorumiz uzoq bir tarixga borib taqaladi. O'sha davrdan boshlab tuprog'imizda qanchadan qancha ulug'lar ulg'aydi. Ulardan biri Amir Temur edi. Amir Temur o'z davrining buyuk sarkardasi edi. Dunyoning deyarli yarmiga hukmdorlik qilgan. Undan so'ng uning avlodlari ham ikki asr hukmronlik qilgan. U haqida shoir shunday yozadi:

Zabtga olib keng Osiyoni,  
Bir zod chiqdi mag'rur, davongir,  
Ikki asr yarim dunyoni  
Zir qaqshatdi buyuk jahongir...

Qolaversa, Mirzo Ulug'bek 1018 ta yulduzni muqim turadigan joyini aniqlab, osmon ilmiga asos soladi. O'z o'g'li tomonidan o'ldirilgan Mirzo Ulug'bekning ilm oyoqosti qilinganini o'ylab to'kkan ko'zyoshlari yulduzga qiyoslanadi. She'rning keyingi bandida yer yuzida yana bir quruqlik borligi Abu Rayhon Beruniy tomonidan aytilganligi,



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

lekIn bu kashfiyot uchun Xristafor Kalumb ulug'lanishini alam bilan yodga oladi. Buyuklar haqida so'z borganda, albatta, Navoiy ham ongimizda gavdalanadi. G'azal mulkning sultoni- Alisher Navoiy turkiy tilda "Xamsa" dostonini yaratdi. Butun millatni ushbu asar orqali maftun etdi. U yaratgan "komil inson" obrazi ta'sirida nafaqat Sharq adabiyoti, balki G'arb adabiyoti ham gullab yashay boshladi. Buyuklarni e'tirof etganda, shoir eng buyugi ona xalqi ekanligini ta'kidlaydi:

Buyuklarga baxsh etgan daho  
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.  
Sen o'zingsan, eng so'nggi nonin  
Asrlardan opichlab o'tgan...

To'g'ri, agar xalq bo'lmaganda ularni kim tarbiyalar edi, ularning asarlari kim tomonidan o'qilardi-yu ularning nomlari kim tomonidan bizgacha yetib kelar edi. Aslida, ular sababchi emasmi, bizning Amir Temur haqida fikr yuritishimizga, Navoiy asarlari orqali olamni yanada chuqurroq anglashimizga yordam bergan? Haqiqiy qahramonlik ham, jasorat ham mana shunda.

Tarix guvohki, 7-8-asrlarda O'rta Osiyoni arablar bosib olishidan avval buddaviylik, zardushtiylik kabi dinlarga sig'inishgan, arablar yurtimizga kirib kelganidan so'ng islom dini sekin-asta tarqala boshlab, insonlar avvalgi dinlar dinlaridan vos kechib yagona Haqqa, ya'ni Allohga sig'ina boshlaganlar. Adib o'z diyorini shunday jannatmakon tasvirlaydiki, o'tmishda ham ko'plab hukmdorlar uni bosib olishni xohlaganligini sababini bilib olamiz. Ulardan biri mo'g'il shohi Chingizxon edi. Chingizxonning 1219-1221-yillardagi Movorounnahrda yurishi Xorazmshohlar davlatini tor-mor etish, savdo-sotiqni qo'lga olish va mintaqani egallashga qaratilgan puxta tayyorgarlik ko'rilgan bosqin edi. O'tror fojiasidan keyin boshlangan yurish natijasida Buxoro, Samarqand, Urganch kabi yirik shaharlar vayron qilinib, Mahmud Yalavoch kabi amaldorlar orqali boshqaruv o'rnatildi va hudud Mo'g'ullar imperiyasi tarkibiga kiradi. Biroq xalq hech ham umid uzmasdan mustaqillikka erishish ilinjida yashaydi va bu umidni Amir Temur amalga oshirib, mustaqillikka erishadi. Chingizxonning yurtimizga o't qo'yib, suv bostirib yuborishi ham xalqimizni hech ham to'xtatmaydi. Bu orqali adib o'zbek xalqining har biri Vataniga sodiq, mard va jasur millat ekanligini ifodalamoqda. Asrlar o'tib SSSR yurtimizni bosib oldi. Bu davr yurtimiz boshidagi eng ayanchli kunlaridir. 1914-1918-yillardagi 1-jahon urushida millionlab yurtdoshlarimiz halok bo'ldi. Bir necha yillardan so'ng boshlangan 2-jahon urushi ham bizning yurtimizni chetlab o'tgan emas. Bunda ham qanchadan qancha erkaklar-u ayollar shahid ketishdi. SSSR hukmronligi davrida millionlab yurtdoshlarimiz quloq qilinib, nohaq ayblovlar asosida o'ldirildi. Xalq ham dinda, ham adabiyotda o'z erkini yo'qotdi. Adabiyotda qanchadan qancha yozilmay qolgan dard-alamlar qolib ketdi.

Shoir she'ning keyingi bandlarida kelajak avloddan buyuk shaxslar chiqishiga umid bog'laydi. Xalqi kim bo'lishidan qat'i nazar (shoir, konchi, fazogir, cho'pon) o'zligini unutmazligini aytadi. Yurtining o'tmishi qanchalar qonli kechganini, ular uchun millionlab insonlar jon fido qilganliklarini unutmazlikka chaqiradi. She'ning oxirgi bandida shoir yurtiga baxt- saodat tilaydi:



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

Zavol ko'rma hech qachon, o'lkam,  
Zavol bilmas shu yoshing sening  
Muzaffar bo'l, g'olib bo'l, o'ktam,  
Do'st-u yoring, qardoshing bilan.  
Asrlarning silsilasida  
Boqiy turgay koshonang sening  
Ulug' bashar oilasida  
Mangu yorug' peshonang sening  
Mangu yorug' maskanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Xulosa qilib aytganda, ushbu she'r orqali yurtimizning o'tmishi ayanchli bo'lishiga qaramasdan xalqning birdamligi, sabr- bardoshi naqadar buyuk ekanligi ko'rsatib beriladi. Buyuk olim-u adiblar yetishtirgan xalq ulardan-da buyuk ekanligi, kelajagi ham undan-da buyuk bo'lishi ta'kidlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Oripov A. "Tanlangan asarlar"- Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti. 2000
2. Quronov D. "Adabiyotshunoslikka kirish". – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2019
3. Oripov A. "Saylanma". – Toshkent: Ma'naviyat. 2007

